

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 201 (1262), 2024-yil 4-oktabr, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



Xalqaro anjuman

MAHALLANING JAMIYAT  
TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI QANDAY?

Samarqandda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” g‘oyasi asosida ko‘plab nufuzli tuzilmalar hamda yetmishdan ortiq mamlakat ekspertlari ishtirokida xalqaro anjuman bo‘lib o‘tmoqda. Tadbirni tashkil etishdan asosiy maqsad dunyoda o‘xshashi bo‘lmagan o‘zini o‘zi boshqarishning noyob instituti – yurtimizdagi mahalla tizimi faoliyatini keng targ‘ib etish, mahallalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar va o‘rtirilgan ilg‘or tajribani keng ommalashtirishdan iborat.



Yaqin me‘yoriy-huquqiy hujjat qabul qilinib, “mahalla yetiligi”dan iborat ta’sirchan tuzilma faoliyati yo‘lga qo‘yilgan ijobiy samara beryapti.

Bugun tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni ta‘minlash, ijtimoiy yordam ko‘rsatish kabi muhim yo‘nalishlarda mahallaning ishtiroki tobora kengaymoqda.

Jumladan, kambag‘allikni qisqartirish borasida keyingi yillardagi xayrli ishlar natijasida 3,5 million aholini daromadli qilish orqali kambag‘allik darajasi 11 foizga tushirildi.

Davomi 2-betda

Tahlil

Shakllanayotgan “YASHIL” ENERGETIKA tizimi:  
BIZ QAYERDA XATOGA YO‘L QO‘YYAPMIZ?

## TAQCHILLIK VA ENG TO‘G‘RI YECHIM

Bir-ikkita ko‘mir konini hisobga olmaganda, energetika, resursi deyarli mavjud bo‘lmagan Vyetnam yaqin yillargacha energetika taqchilligidan aziyat chekar edi. Ko‘mir yordamida ishlaydigan sanoqli issiqlik elektr stansiyalari jadal rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiyoti va aholi ehtiyojini qoplay olmasligi vaqt o‘tgan sari kunday ravshan bo‘lib borardi.

Shu bois, 2017-yilga kelib, mamlakatda muqobil energetika manbalarini yaratish borasida jiddiy islohotlar o‘tkazildi. Sohaga ko‘plab investitsiya jalb qilinishi barobarida quyosh panellari o‘rnatib, “yashil” energiya ishlab chiqarish orqali oddiy vyetnamliklar ham yaxshi daromad topishi mumkinligi aholiga atroficha tushuntirildi. Rag‘batlantiruvchi dastur ishga tushirilishi tufayli odamlar yiqqan-terganiga ommaviy tarzda quyosh paneli sotib olib, uyining tomiga o‘rnatib boshladi. Har bir kilovatt elektr energiyasini davlat o‘sha vaqtda 9 sentdan sotib olardi. Elektr energiyasi chetdan import qilinayotganidan qimmatga tushishiga qaramay, Vyetnam bu dasturga katta pul tikdi.

Sa’y-harakatlar natijasi uzoq kuttirmadi. Oradan ikki yil o‘tib, mamlakat elektr energiyasi importchisidan eksportchisiga aylandi. 2020-yilda Vyetnamda elektr energiyasining deyarli chorak qismi quyosh paneli orqali ishlab chiqarildi. Ushbu davrga kelib, mamlakatda 9,3 gigavatt quvvatga ega bo‘lgan yuz mingdan ortiq quyosh paneli o‘rnatilgan. Bu ko‘mirda ishlaydigan qariyb oltita elektr stansiyasining quvvatiga teng edi. Qolaversa, atrof-muhitga yiliga o‘rtacha 14 ming tonna karbon dioksidi chiqib ketishining oldi olindi.

Davomi 4-betda

## RAQAMLI MUHITDA INTELEKTUAL MULK HIMOYASI

Bu boradagi ta’sirchan huquqiy va tashkiliy ishlar  
bunyodkorlik salohiyati oshishiga zamin yaratadi

Bugun insoniyat tabiiy resurslar cheklangan sharoitda hayot kechirmoqda. Shunday vaziyatda barqaror rivojlanish va farovonlikka erishish uchun ko‘plab omillar qatori intellektual mulkni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda.

Zero, intellektual mulk o‘z egasiga yillar davomida daromad keltiradi, qiymati esa moddiy obyektlardan farqli o‘laroq kamaymaydi. Shu bois, bu sohani rivojlantirish, muallif

va boshqa huquq egalari qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Davomi 2-betda

## MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

27-OKTABR — OLIY MAJLIS  
QONUNCHILIK PALATASI  
VA MAHALLIY  
KENGASHLAR DEPUTATLARI  
SAYLOVI KUNI

SAYLOV  
2024  
27-OKTABR  
MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

Mazkur maqola O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasiga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e’lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

O‘ZBEKISTON KO‘PLAB  
KREATIV LOYIHALAR AMALGA  
OSHIRILAYOTGAN MUHIM MADANIYAT  
MARKAZIGA AYLANMOQDA

Kreativ iqtisodiyot bo‘yicha IV jahon konferensiyasi  
xorijiy ishtirokchilari anjuman haqida

2-4-oktabr kunlari Toshkentda Kreativ iqtisodiyot bo‘yicha IV jahon konferensiyasi (WCCE-2024) bo‘lib o‘tmoqda.



Konferensiya kreativ iqtisodiyotning kelajagi va rivojlanayotgan texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellektning ushbu dinamik sohaga ta’sirini muhokama qilish maqsadida butun dunyodan 2000 dan ziyod ishtirokchini birlashtirdi.

“Inklyuziv kreativlik: o‘zgaruvchan reallik” mavzusida bo‘lib o‘tayotgan anjuman texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ayniqsa, sun’iy intellektning joriy etilishi bilan bog‘liq ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Voqealarga boy o‘tayotgan konferensiya xorijiy ishtirokchilar tomonidan yuqori baholanyapti.

Davomi 2-betda

Yangi O‘zbekiston maktab  
ostonasidan boshlanadi

CHIN INSONLIK KITOBIGA  
BAXT-U HIKMAT BITGANLAR

Yurtimizda qutlug‘ bayram — O‘qituvchi va murabbiylar kuni shukhi kezip yuribdi. Sana munosabati bilan alohida o‘rnak ko‘rsatgan ta’lim sohasi xodimlari yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Jamiyatimiz binokorlarining islohotlardagi faolligi, Uchinchi Renessans ijodkorlarini tarbiyalash borasidagi katta xizmatlari munosib e’tirof etildi.

Davomi 5-betda

Zarrabin  
**Orzudagi**  
**YUKSAKLIK SHUKHI**  
Uni ma’rifatli, sadoqatli va  
fidoyi shaxslar yaratadi

6

# MAHALLANING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI QANDAY?



## Boshlanishi 1-betda

Ijtimoiy himoya qamrovi 4,5 karra kengaytirilib, o‘tgan yili 12,3 trillion so‘m yo‘naltirildi. Mahallada kambag‘allikni qisqartirish, tadbirkorlik loyihalariga 35 trillion so‘m kam foizli kredit, 7 trillion so‘m subsidiya berildi. Qolaversa, 260 ming gektar yer 800 ming kishiga dehqonchilik uchun ajratildi.

Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabr-dagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda o‘O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori jamiyatimizdagi yangilanishlarda muhim huquqiy asos bo‘lmoqda. Ushbu hujjatlar asosida O‘zbekiston mahallalari uyushmasi va hududiy tuzilmalari tashkil etildi.

Har bir fuqarolar yig‘inida “mahalla yetiligi” shakllantirilib, aniq vazifalari, birgalikda qildigan ishlari belgilab berildi. Mahalla xodimlari faoliyatining asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha alohida baholash tartibi joriy etilmoqda. Barcha mahallalarda “mahalla byudjeti” tizimi yo‘lga qo‘yildi. Eng muhimi, mahallaning aholiga ijtimoiy ko‘mak berish borasidagi vakolati kuchaytirildi. Endi “Temir daftar”, “Ayollar daftar” va “Yoshlar daftar” orqali ijtimoiy yordam ko‘rsatish va subsidiya ajratish “mahalla yetiligi”ning birgalikdagi qarori asosida amalga oshirilyapti.

Qolaversa, barcha darajadagi rahbarlar mahallaga tushgan holda aholini qiynayotgan muammolarni o‘rganib, joyida hal etish choralarini ko‘rmoqda. Shu bilan birga, aholi uchun o‘zini qiynayotgan muammolar yuzasidan mahallaga murojaat qilish tizimi yaratildi. Bu tizim yildan yilga takomillashib, “Inson qadri uchun”, “Inson manfaatini hamma narsadan ustun”, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” kabi insonparvarlikka yo‘g‘rilgan ezgu



Bugun mahallaga murojaat qilish orqali ko‘pgina masalalarga ijobiy yechim topilyapti. Ayniqsa, kundalik hayotimizda muhim o‘rin tutadigan, hayot kechirish uchun zarur bo‘lgan yo‘l, suv, elektr energiyasi, gaz va boshqa shu kabi masalalar yuzasidan kelib tushgan murojaatlar yechimi bo‘yicha mahallalar tizimli ishlamoqda.

Taraqqiyot tobora ilgari ekan, insoniyatning hayotiy ehtiyojlari va farovon yashashga intilishi ham kuchayib boraveradi. Tabiiyki, bu aholi uchun ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni, aholining turmush sharoitini yaxshilashga oid ishlarni kengaytirishni taqozo etadi. Xususan, mahallalarda aholiga sifatli kommunal xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq ishlar ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada mahallalar hududidagi ko‘p kvartirali uylarni samarali boshqarish tizimini yaratish yuzasidan boshqaruv-servis kompaniyalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mazkur amaliyot aholi hayotini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Jumladan, 2022-2024-yillarda boshqaruv-servis kompaniyalari bozori shakllanishi natijasida 12 mingga yaqin yangi ish joyi ochilib, mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun salkam 400 milliard so‘mlik yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarildi.

Ko‘p qavatli uylarga xizmat ko‘rsatish sohasiga taqib etilgan bunday islohotlar bugun o‘zini to‘liq oqladi. Endi ushbu samarali tizimni yakka tartibdagi uy-joylarga ham joriy etishga e‘tibor qaratilyapti. Bu ishlarda Prezidentimizning “Mahallalarni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va qiyofasini tubdan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori muhim dasturilamal bo‘lyapti. Hovli-joylar va mahallalar obodligini ta‘minlash, chekka hududlarda obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida joylarda mahalla servis kompaniyalari tashkil etilyapti. Zero, yurt obodligi mahalladan boshlanadi. Mahalla obod bo‘lsa, mamlakat obod bo‘ladi.

Albatta, yurtimizdagi bunday xayrli ishlar bardavom bo‘lishi va jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar izchil davom etishida xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro tajriba almashish, birgalikda turli dastur va loyihalarni amalga oshirish barcha uchun birdek manfaatli. Mazkur xalqaro anjuman ishtirokchilar uchun ana shunday ezgu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish, o‘zaro aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Tadbi ming birinchi kuni Markaziy Osiyo mamlakatlarida o‘zini o‘zi boshqarish organlari tajribasi, davlat boshqaruvi, xotinqizlar, yoshlar va bolalar manfaatini himoya qilishda mahallaning o‘rni, raqamli muhitda milliy qadriyatlar davomiyligini ta‘minlash va mahalla faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq dolzarb masalalarga oid ma‘ruzalar tinglandi.

Xalqaro anjuman bugun, 4-oktabr kuni ham davom etadi. Tadbir ishtirokchilarini mahallalardagi o‘zgarishlar, mahallabay ishlash tizimi bo‘yicha erishilayotgan natijalar, mahalla servis kompaniyalari faoliyati bilan yaqindan tanishtirish maqsadida Samarqand shahri va tumanidagi mahallalarga borish rejalashtirilgan. Shuningdek, tarixiy go‘shalar, diqqatga sazovor joylarga sayohat uyushtirildi.

Anjuman yakunida rezolyutsiya imzolaniishi ko‘zda tutilgan.

**Bahor XIDIROVA,**  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

## Sharh

# RAQAMLI MUHITDA INTELEKTUAL MULK HIMOYASI

“Qonunda shu kabi dolzarb vazifalar yechimiga oid muhim chora-tadbirlar o‘z aksini topdi. Xususan, intellektual mulk obyektlaridan qonunga xilof ravishda foydalanganlik uchun huquq egasining talabiga ko‘ra huquqbuzar tomonidan tovon to‘lash tartib-taomili joriy etilishini nazarda tutuvchi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi.

## Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda ham ushbu yo‘nalishda muhim chora-tadbirlar ko‘rilmogda. Intellektual mulkni muhofaza qilish bo‘yicha qonunchilik asoslari yaratilib, amaliy ishlar yil sayin takomillashyapti. Intellektual mulk himoyasini ta‘minlash bo‘yicha O‘zbekiston qator xalqaro konvensiyalarga qo‘shilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanishi, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi mustahkamlangan.

Ushbu yo‘nalishda qonunchiligimizda belgilangan tamoyillarni ro‘yobga chiqarish maqsadida davlat vakolatli organlari tashkil etilib, tegishli tartibda ish yuritilyapti. 2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. Unda jamiyatda intellektual mulkka hurmat hissini shakllantirish va aholining huquqiy madaniyatini oshirish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rsatildi.

Hozir mamlakatimiz Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish yo‘lida muhim qadamlar qo‘ymoqda. Bunga erishish uchun savdo va xizmatlar sohasidagi ishlarni xalqaro standartlar talablariga muvofiqqlashtirish barobarida ijodiy va intellektual mulk huquqini himoya qilish bo‘yicha ishlar qamrovini yanada kengaytirish lozim.

Prezidentimiz joriy yil 10-sentabrda imzolagan “Intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bu borada muhim qadam bo‘ldi.

Keyingi yillarda yurtimizda iqtisodiyot tarmoqlariga intellektual faoliyat natijalari joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyati va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish

bo‘yicha keng qamrovli ishlar qilinayapti, — deydi Oliy Majlis Senati a‘zosi Odiljon Iminov. — Bu borada ko‘zlangan natijalarga erishish uchun intellektual mulkni ishonchli huquqiy himoya qilish ustuvor vazifadir. Hozir bu masalalarga davlat darajasida e‘tibor qaratilib, sohaning huquqiy va tashkiliy jihatdari takomillashtirilyapti. Jumladan, sanoat mulki obyektlarini ro‘yxatga olish muddatini sezilarli darajada qisqartiruvchi tekzor ekspertiza o‘tkazish imkoniyati ta‘minlandi. Tovar belgilari ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talabnoma beruvchilar tomonidan tadbirkorlik subyekti maqomiga ega bo‘lishi bo‘yicha qonunchilikdagi cheklolar bekor qilindi. Intellektual mulk obyektlarini ro‘yxatga olishning barcha bosqichini o‘z ichiga olgan, takomillashtirilgan intellektual mulk bo‘yicha elektron davlat xizmatlari portali ishga tushirildi. Eksport qiluvchilar uchun 2025-yilgacha xorijda geografik ko‘rsatkichlar va tovar kelib chiqqan joy nomlarini ro‘yxatdan o‘tkazish xarajatini davlat tomonidan qoplash tartibi joriy etildi. Albatta, bu ishlar o‘z samarasini beryapti. Shu bilan birga, sohada yechimini kutayotgan muammolar ham yo‘q emas. Xususan, jismoniy va yuridik shaxslarning intellektual faoliyati natijasida yaratilgan mulkning daxlsizligini ta‘minlash, jamiyatda huquqbuzarliklarga nisbatan murosasiz



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

# O‘ZBEKISTON KO‘PLAB KREATIV LOYIHALAR AMALGA OSHIRILAYOTGAN MUHIM MADANIYAT MARKAZIGA AYLANMOQDA

## Boshlanishi 1-betda

**Jan-Mishel KROVSI,**  
“Hangar Y” galereyasi  
bosh direktori (Fransiya):

— Toshkentda bo‘lib o‘tayotgan Kreativ iqtisodiyot bo‘yicha IV jahon konferensiyasida ishtirok etayotganimdan xursandman. Bu juda muhim mavzu. Toshkent konferensiyasi allaqachon butun dunyodan ko‘plab ishtirokchilarni o‘ziga jalb etgan holda keng tanildi. O‘zbekiston poytaxti ko‘plab kreativ loyihalar amalga oshirilayotgan muhim madaniy markaziga aylanmoqda. Tadbi rning o‘zi ijodkorlar zamonaviy dunyoda madaniyatning o‘rni haqida yangi g‘oyalarni almashish zarurati bo‘lgan bir paytda o‘tkazilyapti.

“

**Konferensiyadan umidlarim juda katta. Anjuman ishtirokchilari kreativ sohadagi so‘nggi yangiliklar, madaniyat va san’atni keng ommaga yetkazish, sun‘iy intellektning ta’siri va madaniyat sohasidagi boshqa dolzarb masalalarni muhokama qilmoqda.**

Men “Metropolis muzeyi: shahar rassomlar va ijodkorlar uyi sifatida”

“

**Mazkur konferensiya O‘zbekistonga o‘z yutuqlarini namoyish etish, investitsiyalarni jalb qilish va kreativ industriyani rivojlantirishni rag‘batlantirish imkoniyatini taqdim etadi. Bu esa mamlakatingizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.**



**Van SYUYDUN,**  
Pekindagi dunyoga mashhur “Gugun” muzeyi direktori:

— O‘zbekistonga kelib, kreativ iqtisodiyotga bag‘ishlangan bunday muhim tadbirida ishtirok etayotganimdan juda xursandman. Forum O‘zbekistonda ilk bor o‘tkazilmogda. Bu esa O‘zbekiston iqtisodiyotidagi katta o‘zgarishlardan dalolat beradi.

Anjumanida dunyoning ko‘plab davlatlaridan vakillar ishtirok etayotganini alohida ta’kidlash kerak.

**Don I,**

**“CCTV-4” telekanali bosh muharriri (Xitoy):**

— Toshkent shahrida bo‘lib o‘tayotgan Kreativ iqtisodiyot bo‘yicha IV jahon konferensiyasini yoritishda Xitoy OAV vakili sifatida ishtirok etish menga katta mamuniyat bag‘ishlaydi.

Anjumanida madaniyat va san’at namoyandalari, siyosatshilar hamda tadbirkorlar o‘z taqdimotlari davomida turli sohalarda yangi yechimlar ishlab chiqishda kreativ yondashuv va innovatsiyalar haqida muhim ma‘lumotlar bilan o‘rtoqlashyapti.

O‘ylaymanki, mazkur tadbir kreativ va ijodkor

insonlar uchun o‘ziga xos maydonga aylanadi. Bugun butun dunyoda yangi texnologiyalar jadal rivojlanmogda, sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanilmogda, axborot texnologiyalari har bir inson hayotiga kirib bormogda.

Bunday sharoitda ushbu forumni o‘tkazish, meningcha, nafaqat O‘zbekiston, balki uning barcha ishtirokchilari uchun ham juda dolzarb.

“Dunyo” AA



**Izabella PEK,**  
Kuala-Lumpur shahar meriyasining Madaniyat, san’at, turizm va sport departamenti boshlig‘i (Malayziya):

— Toshkentda boshlangan kreativ industriyalarni muhokama qilish va rivojlantirishga qaratilgan Kreativ iqtisodiyot bo‘yicha IV jahon konferensiyasi juda muhim xalqaro voqeadir.

Konferensiya mamlakatlar o‘rtasida ilg‘or tajriba almashish uchun noyob platforma bo‘lib, ijodiy industriyalarning global rivojlanishiga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston uchun bunday miqyosdagi tadbirga mezbonlik qilish uning Markaziy Osiyodagi kreativ iqtisodiyoti markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlash yo‘lidagi muhim qadam sifatida baholanishi kerak.

Shubhasiz, ushbu anjumanda texnologiya va innovatsiyalar sohasidagi so‘nggi yutuqlar muhokama qilinishi kreativ sohalarga ilg‘or yechimlarni joriy etishga xizmat qiladi.

Bu yilgi tadbir kun tartibi juda dolzarb bo‘lib, u raqamli transformatsiya, sun‘iy intellekt, barqaror rivojlanish va global hamkorlik kabi asosiy yo‘nalishlarga taalluqli qator mavzularni qamrab olgan.

Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ish o‘rinlari yaratish va bandligini ta‘minlashda kreativ industriya yuksak salohiyatga ega ekanini alohida ta’kidlamogchiman. Qolaversa, kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish madaniy-kreativ tovarlar va xizmatlar eksportini ko‘paytirishga, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi.

Ishonchim komilki, kelgusida kreativ tadbirlar va madaniy loyihalar ushbu anjumanda ishtirok etayotgan mamlakatlarning sayyohlik salohiyatini sezilarli darajada oshirishga ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur konferensiya O‘zbekistonga o‘z yutuqlarini namoyish etish, investitsiyalarni jalb qilish va kreativ industriyani rivojlantirishni rag‘batlantirish imkoniyatini taqdim etadi. Bu esa mamlakatingizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xitoy iqtisodiyotining turli tarmoqlariga ixtisoslashgan yirik kompaniyalar rahbarlaridan iborat delegatsiyaga boshchilik qilish men uchun katta shara fdir.

Ishonchim komilki, mazkur tadbir O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojiga, yangi yuksalish nuqtalari va kreativ imkoniyatlarni topishga xizmat qiladi.



Bunda tovon zarar yetkazilishi faktidan qat’i nazar, huquqbuzarlikning xususiyatidan va patent egasining mutlaq huquqini buzgan holda sanoat mulki obyektidan foydalanayotgan shaxsning aybi darajasidan kelib chiqib, ish muomalasi odatlari hisobga olingan holda to‘lanadi. Tovu n miqdori taraflarning kelishuviga muvofiq yoki sud tomonidan belgilanadi.

Mazkur qonun bilan, shuningdek, “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi qonunga ham o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmogda. Unga ko‘ra, tovar belgisidan uning egasining mutlaq huquqini buzgan holda, ya’ni uning ruxsatisiz foydalanayotgan shaxslar tovar belgisi egasining talabiga ko‘ra yetkazilgan zararining o‘rmini qoplashi shartligi belgilanmogda.

Bundan tashqari, “Firma nomlari to‘g‘risida”gi qonunga firma nomiga bo‘lgan huquqni himoya qilish usullariga zarar o‘rmini qoplash va zararlangan qoplanishi o‘rniga bazaviy hisoblash miqdorining 20 barobaridan 1000 barobarigacha miqdorda tovon to‘lash tartibi joriy etilmogda. Shu bilan birga, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunga o‘zga shaxslarga tegishli intellektual mulk obyektlaridan qonunga xilof ravishda foydalanishga yo‘l qo‘yilmaslighi bilan bog‘liq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilmogda.

Qonunchiligimizga kiritilayotgan ushbu yangiliklar jismoniy va yuridik shaxslarning intellektual mulkka bo‘lgan huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, intellektual mulk himoyasini kuchaytirish va raqamli muhitda ijodiy faoliyatga bo‘lgan huquqlarni muhofaza qilishning ta’sirchan mexanizmlari tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Bahor HAZRATQULOVA,**  
jurnalist

# IJTIMOY YO‘NALTIRILGAN BOZOR IQTISODIYOTI – KUCHLI IJTIMOY SIYOSATNING ASOSIDIR



Huquqlar, imkoniyatlar tengligi, har bir inson farovonligiga intilish davlat va jamiyat barqaror rivojlanishining muhim, ustuvor mezonlaridan hisoblanadi.

Dunyoda hukm surayotgan murakkab hozirgi sharoitda bu masalaning qadr-qimmatini, ahamiyatini yanada ortgan. Binobarin, ijtimoiy tengsizlik, aholi turli qatlamlari o‘rtasida tafovutlar paydo bo‘lishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Iqtisodiyotning barqaror ravnaq topishi uchun ham davlat ijtimoiy adolatni ta‘minlashi, boshqacha aytganda, ijtimoiy himoya mexanizmlarining keng qamrovini va izchilligini kafolatlashi kerak.

BMT Bolalar jamg‘armasi (UNICEF) tomonidan e‘lon qilingan ma‘lumotlarga ko‘ra, 15 yoshgacha bo‘lgan 1,4 milliard bolaning ijtimoiy huquqlari ta‘minlanmagan. Dunyo aholisining atigi 29 foizi ijtimoiy himoya tizimlari bilan yetarli darajada qamrab olingan bo‘lsa, 55 foizi bu qamrovga to‘liq ega emas.

Ma‘lumki, shunday sharoitda bir qator mamlakatlar hukumatlari bozor iqtisodiyotining ijtimoiy tengsizlik va kambag‘allikka olib keladigan jarayonlarini jilovlash maqsadida davlatning ijtimoiy siyosatini kuchaytirishga e‘tibor qaratmoqda.

Kezi kelganda ta‘kidlash o‘rinliki, O‘zbekiston bugun jahon minbarlarida har bir fuqarosi uchun g‘amxo‘rlik qiladigan ijtimoiy davlat sifatida e‘tirof etilmoqda.

Aholiga malakali va sifatli tibbiy xizmatni yaqinlashtirish maqsadida tizimda olib borilayotgan islohotlar ham, ochig‘i, bir oz qiyin kechayotgan bo‘lsa-da, asta-sekin bo‘y ko‘rsatmoqda.

Bolalar, ayollar, keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, migrantlar va ularning oila a‘zolarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashda ham yil sayin o‘shish dinamikasi kuzatilmoqda.

O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi konstitutsiyaviy maqomini ta‘minlashda davlat boshqaruv idoralari bilan bir qatorda nodavlat institutlar, jamoatchilik, asosiysi, siyosiy partiyalar birinchtar safida puxta o‘ylangan, natijador taklif-tashabbuslarning ijodkorlari bo‘lmog‘i kerak.

Shu ma‘noda, Xalq demokratik partiyasi bozor iqtisodiyotining ijtimoiy samaradorligini oshirishga urg‘u berib kelayotgani, yangi Saylovoldi dasturida ham bu yo‘nalishda aniq, hayotiy va xalqchil takliflarni kiritgani zahirida bir haqiqat turibdi. Bu insonparvarlik, tenglik g‘oyalari islohotlarga chuqur singdirish, ijtimoiy adolat va birdamlikni hamma narsadan ustun qo‘yish maqsadi bilan bog‘liqdir.

## Davlatning faol roli va ishtiroki muhim

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi iqtisodiyotni ijtimoiy barqarorlikni ko‘zlab rivojlantirish muhim deb hisoblaydi.

Chunki dunyo tajribasidan ayonki, erkin bozor qonunlari ba‘zan ijtimoiy tafovutlarning, tengsizlikning chuqur ildiz otishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa ijtimoiy davlat barpo etish uchun to‘siqdir. Qolaversa, samarali boshqaruvga ega davlatning asosiy tartibga soluvchilik roli bozor munosabatlarini rag‘batlantirib, ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltiradi. Bozor munosabatlarini tartibga solish va ijtimoiy tenglikni ta‘minlash jarayoni davlat ishtirokisiz bo‘lmaydi.

Ammo UzLiDeP Saylovoldi dasturida ilgari surilayotgan iqtisodiyotda davlat ishtirokini keskin qisqartirish, davlat mulkini xususiy lashtirish orqali xususiy sektor ulushini oshirish g‘oyasi bizning pozitsiyamizga zid deb hisoblaymiz. Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotda davlatning ishtiroki bo‘lishi shart, davlat tartibga soluvchi va tashabbuskorligidan voz kechmasligi lozim.

Bundan tashqari, davlat mulkini xususiy lashtirishga doir taklifga ham to‘liq qo‘shila olmaymiz. Masalan, strategik ahamiyatga ega korxona va zavodlarni xorijiy investorlarga topshirish salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu davlatning boshqaruvchilik salohiyatiga va ijtimoiy hayotni tartibga solish mexanizmagacha salbiy ta‘sir ko‘rsatadi deb o‘ylaymiz.

Davlatning iqtisodiyot va ijtimoiy sohada faol ishtirok etishi iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, energetika, transport va mudofaa sanoati kabi strategik muhim tarmoqlar ustidan davlat nazorati ularning milliy manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan xorijiy yoki xususiy manfaatlar nazorati ostiga tushib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Mamlakat aholisi har yili qariyb bir millionga ko‘paymoqda, bu davlat oldiga yangi maktablar va shifoxonalar, ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish majburiyatini qo‘yadi. Bandlikni qo‘llab-quvvatlash, asosiy tovarlar va xizmatlar narxlarini tartibga solish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini himoya qilish singari keng ko‘lamli vazifalarni ham faqat davlat samarali hal qila olishi mumkin.

Samarali davlat nazorati iqtisodiyotda monopoliyani cheklash va adolatli raqobatni ta‘minlash, yangi texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmalarni rivojlantirish sohalariga uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi.

O‘zbekistonning iqtisodiy strategiyasi 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish va global innovatsion indeks reytingida dunyoning 50 ta yetakchi davlati qatoriga kirish va bu ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, davlat ishtiroki hamda nazorati muhimdir.

Zotan, o‘tgan yili yangilangan Konstitutsiyamizning 65-moddasida ham davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoit yaratishi aniq belgilab qo‘yildi.

## BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA IJTIMOY ISLOHOTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN DAVLATNING ASOSIY TARTIBGA SOLUVCHI ROLINI KUCHAYTIRISH HAYOTIY ZARURAT.

XDP faollari bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy islohotlarning samaradorligini oshirish uchun davlatning asosiy tartibga soluvchi rolini kuchaytirishni hayotiy zarurat deya hisoblab kelishi bejiz emas.

### Barqarorlik va farovonlik kafolati

Mutaxassislarning fikricha, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti shunday tizimki, u bir tomondan erkin bozorning o‘zini o‘zi tartibga solish tamoyillariga asoslanib, ikkinchi tomondan xususiy tadbirkorlik va nodavlat sektorning oddiy odamlarga xizmat qilishini ta‘minlaydi. Bozor iqtisodiyotining bu shaklida yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni qayta taqsimlashda davlat muhim rol o‘ynaydi.

Dunyo davlatlari tajribasiga nazar solsak, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini yuritishda yetakchilardan sanalgan Skandinaviya o‘lkalari (Daniya, Shvetsiya, Norvegiya), Finlyandiya, Niderlandiya, Germaniya kabi mamlakatlarda iqtisodiy samaradorlikka muhim asos sifatida qaraladi,

biznesning ijtimoiy mas‘uliyati belgilanib, ijtimoiy himoya amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda davlatning ijtimoiy sohada majburiyatlari bilan bog‘liq konstitutsiyaviy normalar bir necha barobar ko‘paydi. Xususan, aholining ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta‘minlash, fuqarolarni ishsizlikdan himoya qilish, kambag‘allikni qisqartirish, kafolatlangan tibbiy yordamga bo‘lgan huquqni ro‘yobga chiqarish, ta‘limning barcha shakllariga g‘amxo‘rlik qilish, barcha uchun teng imkoniyatlar, nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash mustahkamlab qo‘yildi.

XALQ DEMOKRATIK PARTIYASI BOZOR IQTISODIYOTINING IJTIMOY SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA URG‘U BERIB KELAYOTGANI, YANGI SAYLOVOLDI DASTURIDA HAM BU YO‘NALISHDA ANIQ, HAYOTIY VA XALQCHIL TAKLIFLARNI KIRITGANI ZAHIRIDA BIR HAQIQAT TURIBDI. BU INSONPARVARLIK, TENGLIK G‘OYALARINI ISLOHOTLARGA CHUQUR SINGDIRISH, IJTIMOY ADOLAT VA BIRDAMLIKNI HAMMA NARSADAN USTUN QO‘YISH MAQSADI BILAN BOG‘LIQDIR.

to‘g‘ri yechim bo‘ladi. Ushbu taklif davlatning ijtimoiy majburiyatlarini samarali uddalashida imkoniyatlarni kengaytirishga muhim turtki beradi.

Aholining ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta‘minlash va ularning ijtimoiy himoyasi haqida gap ketganda, “Adolat” partiyasi Saylovoldi dasturidagi fuqarolarning uy-joyli bo‘lishga oid huquqlarini ro‘yobga chiqarishda subsidiyalarni tizimini takomillashtirish borasidagi taklif o‘zini oqlamaydi. Bizningcha, bu borada boshqa samarali iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlar bor. Xalq demokratik partiyasi mazkur yo‘nalishda, masalan, ijtimoiy uy-joylar barpo etishni taklif qilmoqda. Biz taklif qilayotgan yangi mexanizm ehtiyojmand, kam daromadli fuqarolar uchun yanada samaraliroq hisoblanadi.

### Ijtimoiy tenglikni ta‘minlash

XDP daromad va ularning manbalaridan qat‘i nazar, boylikning haddan tashqari konsentratsiyasiga adolatli soliq solish tizimini joriy qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Bunday choralar ayrim rivojlangan mamlakatlarda aholining iqtisodiy tabaqalashuvining oldini olishga xizmat qilgan.

ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga hissa qo‘shishdek olijanob fuqarolik burchini bajarishga imkon beradi. Zero, to‘langan soliqlar hisobidan maktab, bog‘cha, shifoxonalar, yo‘llar kabi ijtimoiy obyektlar barpo etiladi, nogironligi bo‘lgan shaxslar va ehtiyojmand aholi qo‘llab-quvvatlanadi.

### Shaffoflik kerak

Davlat xaridlari davlat, jamiyat va biznes o‘rtasidagi munosabatlarning sifatini aks ettiruvchi muhim jarayon sanaladi. Davlat organlari va muassasalari budjet mablag‘laridan samarali foydalanishi lozimdir.

Bugungi kunda jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat xaridlari tizimini takomillashtirmay turib, iqtisodiy samaradorlik, biznes subyektlari o‘rtasida halol raqobat, korupsiyaga qarshi kurashish borasida yuqori natijalarga erishish qiyin.

Mamlakatimizda davlat xaridlari tizimini ochiqlik va shaffoflik tamoyiliga muvofiqlashtirish, shu orqali korupsiya va uning oqibatlariga, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bu borada normativ-huquqiy

Ko‘rib turganimizdek, bir-biriga halqa misoli bog‘langan bu jarayonlar pirovardida ijtimoiy himoya tizimi samaradorligiga olib keladi. Xalq demokratik partiyasi davlat xaridlari tizimida shaffoflikni hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishni o‘ta muhim deb hisoblaydi.

### Ijtimoiy siyosatning “barometri”

Xalqaro mehnat tashkilotining ma‘lum qilishicha, 2024-yilda dunyo bo‘yicha ishsizlar soni ikki millionga oshishi va global ishsizlik darajasi hozirgi 5,1 foizdan 5,2 foizga ko‘tarilishi kutilmoqda. Katta yigirmatalik davlatlarining ko‘pida ixtiyoriy daromadlar kamayadi va inflyatsiya natijasida turmush darajasining pasayishi qisqa muddatda deyarli tiklanmaydi.

Dunyoda bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham bu masala juda dolzarb. Mana shunday sharoitda aholining bandlik darajasini ko‘tarish, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan davlat dasturlari ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda. Binobarin, bandlik sohasiga ijtimoiy siyosatning “barometri” deya ta‘rif berish mumkin.

E‘tiborlisi, bu sohada O‘zbekistonda yetarli tajriba to‘plandi, ijtimoiy-iqtisodiy faollik ortdi. Lekin o‘zgarishlarga qaramay, vaqtincha ishsiz fuqarolar, asosan, yoshlar va xotin-qizlar manfaatlarini himoyalash muhim.

Xalq demokratik partiyasi bu borada ishsizlik bo‘yicha majburiy ijtimoiy sug‘urta milliy modelini joriy qilishni taklif etmoqda. Bu shunday tizim bo‘ladiki, ish topishda qiyinalayotgan, turli sabablar bilan ish joyidan ayrilgan, vaqtincha ishsizlar qatorida turgan insonlar manzilli qo‘llab-quvvatlanadi. Ayni paytda u fuqarolarni boqimandalikka emas, ijtimoiy-iqtisodiy faol bo‘lishga undaydi.

### Iqtisodiy taraqqiyotning lokomotivi

Milliy iqtisodiyotimizning barqaror o‘shishida investitsiyalar oqimini kengaytirish, buning uchun zarur iqtisodiy-huquqiy sharoitni yaratish muhim.

Iqtisodiyotimizga mablag‘ kiritish istagida bo‘lgan har qanday investorni birinchi navbatda sharoit, imkoniyat qiziqtiradi. Ayniqsa, qanday imtiyoz va preferensiyalar taqdim etilgani ham ahamiyatli.

So‘nggi yillarda iqtisodiyotimiz qariyb ikki barobar o‘sdı. O‘tgan yil yakuni bo‘yicha bu o‘shish 5,5 foizni tashkil qildi. Inflyatsiya 9 foizgacha pasaydi. Savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari oshmoqda. Valyuta bozori va oltin-valyuta zaxiralari barqarorligi saqlab qolinmoqda.

Investitsiyalar iqtisodiy taraqqiyotimizning mustahkam dryveri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazaridan, O‘zbekistonni xorijiy investorlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylantirish maqsadida mahalliy investorlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish dolzarb ekanini ta‘kidlash joiz. Bu Saylovoldi dasturimizdagi muhim tashabbuslardan biridir.

Sodda qilib aytganda, xorijiy investorga ham, mahalliy investorga ham bir ko‘z bilan qaralishi muhim. Bu eksportbop sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, tarmoqlararo kooperatsiyani chuqurlashtirish va qo‘shilgan qiymat zanjirini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotni isloh qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash haqida gap ketganda, O‘zbekiston Ekologik partiyasi Saylovoldi dasturining iqtisodiyot sohasidagi ayrim tashabbuslari tadbirkorlar, xususan, fermerlar uchun salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, partiyanning “2030-yilga qadar pestitsidlardan foydalanish hajmini 50 foiz kamaytirish” to‘g‘risidagi taklifi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar uchun muayyan qiyinchiliklar olib kelishi mumkin. Fermer, dehqonlarimiz turli zararkunanda jonzorlar va hasharotlardan hamda o‘simliklardan himoya qilish uchun pestitsidlarni ishlatishga majbur. Bo‘lmasa, mahsulot nobud bo‘lishi yoki hosilga zarar yetishi mumkin. Umuman olganda, mazkur taklif iqtisodiy samaradorligi jihatidan Ekopartiya tomonidan chuqur o‘ylanmasdan ko‘tarib chiqilgan masala deb hisoblaymiz.

## Xulosa o‘rnida

Saylovoldi targ‘ibot kampaniyasi qizg‘in davom etayotgan davrda saylovchilar, yurtdoshlarimiz siyosiy partiyalarning dasturiy maqsad-g‘oyalari bilan yaqindan tanishmoqda, o‘rganmoqda, taqqoslamoda.

Iqtisodiyotimiz rivojining hozirgi bosqichida islohotlarning ijtimoiy samaradorligini oshirish, har bir inson orzu-maqsadlariga yetishi uchun sharoit va imkoniyat yaratish, turmush farovonligi bo‘yicha davlatning hisobdorligini oshirish dolzarb ahamiyatga egadir.

Partiyamiz Saylovoldi dasturida bu bo‘yicha aniq, hayotiy taklif-tashabbuslar ilgari surilgan.

Iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy samaradorligi uchun Xalq demokratik partiyasiga va nomzodlariga ovoz bering!

To‘liq TO‘RAXONOV,  
O‘zbekiston XDP Markaziy Kengashi raisi o‘rinbosari,  
Qizilgul Qosimova,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati



# O‘ZBEKISTON XALQ DEMOKRATIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!



Tahlil

# Shakllanayotgan “YASHIL” ENERGETIKA tizimi: BIZ QAYERDA XATOGA YOʻL QOʻYYAPMIZ?



**Yunus BO'RONOV,**  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

## Boshlanishi 1-betda

Shu orqali davlat valyuta oqimini mamlakat ichiga yoʻnaltirish bilan birga energetika taqchilligini butunlay bartaraf eta oldi. Vietnamliklarga yangi daromad manbai yaratib berildi. Koʻplab ijtimoiy muammolar ham hal qilindi. Qisqasi, hukumat bir oʻq bilan uchta quyonni urgan edi.

“Yashil” energetikaga oʻtish borasida bugun koʻplab davlatlar “Vietnam tajribasi”ni oʻrganmoqda. Resurslar qisqarayotgan va qimmatlashib borayotgan bir paytda bu tajriba bizga ham eng toʻgʻri yechim boʻlishi shubhasiz.

## Imtiyoz va afzalliklar

Soʻzimizni bejiz “Vietnam tajribasi”dan boshlamadik. Soʻnggi yillarda yurtimizda ham “yashil” energetikaga oʻtish borasida jiddiy qadamlar tashlanmoqda. Sohaga investitsiya

yoʻnaltirilib, bu borada katta tajribaga ega yirik xalqaro kompaniyalar mamlakatimizda quyosh panellari va shamol parraklarini oʻrnatmoqda.

Quyosh paneli savdosi ham yaxshi biznesga aylanib bormoqda. Bunday qurilmalarni oʻrnatganlarga qator imtiyoz va afzalliklar berilgan. Quyosh panellarini uydan chiqmagan holda onlayn xarid qilish mumkin. Buning uchun energymarket.uz platformasiga kirib, xohlagan kompaniyadan, xohlagan quvvatdagi qurilmalarga buyurtma bersa boʻladi.

Jismoniy shaxslar quyosh paneli va quyosh suv isitish qurilmalarini 3 yil muddatga foizsiz, boʻlib-boʻlib toʻlash sharti bilan sotib olishi mumkin. Bunda 5 kilovattgacha quyosh paneli va 200 litrgacha boʻlgan quyosh suv isitish qurilmalarini foizsiz boʻlib-boʻlib toʻlash imtiyozini mavjud.

Yurtdoshlarimiz ushbu qurilmalarni toʻliq xarid qilganida quyosh paneli xarajatining BHMning 20 barobarigacha (6,8 million soʻm) va quyosh suv isitish qurilmalarining BHMning 7 barobarigacha (2,4 million soʻm) qismiga Energiyani tejash jamgʻarmasi tomonidan kompensatsiya ajratiladi.

Ushbu qurilmalar oʻrnatilgach, elektr taʼminoti korxonasi bilan elektr energiyasini sotib olish boʻyicha shartnoma imzolash mumkin. Bir xonadonga 5 kilovatt quvvatli quyosh fotoelektr stansiyasini oʻrnatish oʻrtacha 30 million soʻmga tushadi. Bugungi tarif bilan hisoblanganda oʻrtacha 4 yilda xarajat oʻzini qoplaydi. Elektr taʼminoti korxonasi xonadon egasidan quyosh paneli orqali ishlab chiqarilgan va isteʼmolidan ortgan elektr energiyasining har bir kilovatt/soatini 1000 soʻmdan sotib oladi.

Quyosh paneli oʻrnatgan (oʻrnatilgan yer maydoni uchun) jismoniy va yuridik shaxslar 3 yil davomida yer-mulk soligʻidan ozod boʻladi. Shuningdek, quyosh panelining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam boʻlmagan quvvatga ega akkumulyatorlar oʻrnatilgan boʻlsa, 10 yil yer va mulk soligʻidan ozod etiladi.

Soliq qoʻmitasi tomonidan “Quyoshli xonadon” dasturi asosida 2024-yil oʻtgan oylarida aholi xonadonlarida oʻrnatilgan quyosh paneli

“Oʻtgan yili 5 kilovatt quvvatga ega “on grid” tizimidagi quyosh paneli narxi oʻrtacha 50 million soʻm, “off grid” tizimidagisi esa 65 million soʻm turgan boʻlsa, 2024-yil sentabrda bu qiymat 35 million va 45 million soʻmni tashkil qilaypti.



orqali ishlab chiqarilib, hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga uzatilgan (sotilgan) elektr energiyasi uchun 5 milliard soʻmlik subsidiya toʻlab berilgan.

Mazkur maʼlumotdan anglash mumkinki, shuncha imtiyoz va afzalliklarga qaramay, quyosh panellari oʻrnatib, daromad topish aholi orasida keng ommalashmayapti. Kutilgan natijani bermayapti, deyish mumkin.

Ayni paytda ijtimoiy tarmoqlarda tadbirkorlar besh ish kunida quyosh paneli oʻrnatishi, aks holda, elektr tarmogʻidan uzilishi haqida hududiy elektr tarmoqlari korxonalari tomonidan ogohlantirish xati yuborilayotgani haqida xabarlar tarqalgan.

Bunga javoban Energetika vazirligi quyosh paneli oʻrnatishga majburlash, oʻrnatmagan taqdirda esa tadbirkorni tarmogʻdan uzib qoʻyish bilan ogohlantirish masalasi hech bir qonunchilik hujjatlarida belgilanmaganini maʼlum qildi.

Demak, bunday majburlov qonunchilikka zid. Buni vazirlik ham eʼtirof etaypti. Lekin joylardagi haqiqiy ahvol butunlay boshqacha ekanini vazirlik bayonotini tayyorlaganlar ham yaxshi biladi.

Jumladan, “Tayyor pizza” korxonasi egasi Bahridin Siddiq aynan mana shu majburlov ortidan elektr tarmogʻidan uzib qoʻyilgani tufayli maʼlum muddatga oʻz faoliyatini toʻxtatganini eʼlon qildi. Yuzlab ishchilariga vaqtinchalik taʼtil berishga majbur boʻlganini bildirdi. Ijtimoiy tarmoqlardan bunday misollarni koʻplab keltirish mumkin.

## Narxni yanada arzonlashtirish lozim

Energetika vazirligi maʼlumotiga koʻra, joriy yilning 8 oyida yurtimizga 107 ta

tadbirkorlik subyekti tomonidan 1,5 milliontadan ziyod quyosh paneli olib kiritildi. Eʼtiborlisi, tadbirkorlik subyektlarining 64 tasi bu safga joriy yilda qoʻshilgan. Shuningdek, 62 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan salkam 7 mingta inventar olib kirilgan. Buning natijasida 2023-yil sentabrda bir kilovatt quvvatga ega “on grid” (energiya tanqisligi yuz bermasligi yoki elektr energiyasi ortiqcha boʻlmasligi uchun tarmoqqa ulanish) tizimidagi quyosh paneli narxi oʻrtacha 10 million soʻmga, “off grid” (energiya taʼminotchilaridan mustaqil tizimning muhim tarkibiy qismi quyosh energiyasidan nafaqat kunduzi, balki kechasi ham foydalanish imkonini beruvchi batareya) tizimidagisi esa 13 million soʻmga baholandi. Joriy yilda ularning narxi 30 foizdan ziyod arzonlashib, tegishli 7 million soʻmdan 9 million soʻmgachani tashkil etmoqda.

Xuddi shuningdek, oʻtgan yili 5 kilovatt quvvatga ega “on grid” tizimidagi quyosh paneli narxi oʻrtacha 50 million soʻm, “off grid” tizimidagisi esa 65 million soʻm turgan boʻlsa, 2024-yil sentabrda bu qiymat 35 million va 45 million soʻmni tashkil qilaypti.

Energetika vazirligining aniq raqamlarga asoslangan tahlilini inkor etmagan holda aytilish kerakki, bu narx nafaqat kam taʼminlangan, balki oʻrtahol oilaga ham qimmatlik qiladi. Ehtimol, quyosh panelini chetdan olib kirish emas, oʻzimizda ishlab chiqarish orqali narxini yanada arzonlashtirish chorasini koʻrish kerakdir.

## Taklif ham, talab ham bozorda shakllanadi

Yodingizda boʻlsa, 2017-yilga qadar boshqa viloyatlarni qoʻya turaylik, poytaxt — Toshkentda ham turar joy kam qurilardi. Sohadagi byurokratik toʻsiqlar qurilish sektorini butunlay falaj ahvolda olib kelgani ham sir emas. Koʻp qavatli uy quraman degan tadbirkor borki, sohaga yaqinlashtirilmadi. Qurilishga ruxsat berish jarayoni yillarga choʻzilardi. Davlat qurilish

tashkilotlari qurgan qishloq joylardagi namunali uylar idora va tashkilot xodimlariga, ozgina puli bor odamlarga majburlab boʻlsa-da sotilardi. Bu uylar bozor narxidan bir necha barobar qimmat boʻlishi bilan birga sifatiz buniyod etilgandi. Sohada yakkahokimlik, byurokratiya va monopoliya chuqur ildiz otganidan “begonalar” tizimga aslo yaqinlashtirilmadi. Shu bois, uy-joylar narxi qimmat edi. Oddiy odamlarning xonadonli boʻlishi absurd holga kelgandi.

Hozir esa buning mutlaqo aksini koʻrish mumkin. Bugun qurilish sohasida bozor mexanizmlari joriy qilindi. Quruvchiga ham, oluvchiga ham imtiyoz va afzalliklar berildi. Bugun uy quraman degan tadbirkor ragʻbatlantirilyapti. Uy-joy qurilishi Oʻzbekistonda eng jozibador bizneslardan biriga aylanmoqda. Bir vaqtlardagidek aholi uy sotib olishga majburlanmayapti. Quruvchi ham, uy oluvchi ham oʻz xohishi bilan turar joyga investitsiya kiritaypti. Davlat bu yerda oʻz islohotini sohaga mohirona tatbiq eta oldi. Bugun bemalol ayta olamizki, soha gullab-yashnayapti. Bulardan xulosa shuki, quyosh paneli va isitish tizimlariga ham, elektr energiyasiga ham talab ortib boraveradi.

Xuddi shunday tizimni nega muqobil energetikaga oʻtish borasida mavaffaqiyatli tatbiq eta olmayapmiz? Yuqorida taʼkidlaganimizdek, imtiyozlar va afzalliklar nega ish bermayapti? Vietnam uddalagan ishini nega biz eplolmayapmiz? Qaror qabul qiluvchilarning shu savollarga koʻproq bosh qotirishiga toʻgʻri keladi.

Aslida, bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha jarayonlar bozor tartib-qoidalariga asosida ishlashi kerak. Taklif ham, talab ham bozorda shakllanadi. Bu jarayonga chetdan, deylik, byurokratik aralashuvga ham bozor tezdor oʻz munosabatini bildiradi.

Shunday nozik jihatni eʼtiborga olmasdan, tadbirkorlarning quyosh panellari oʻrnatishga majburlanishi davom etishi yuz minglab kichik tadbirkorlik tuzilmalarining yopilishiga sabab boʻlishi mumkin. Buning oqibatlarini esa tasavvur qilish mushkul emas.

## Yangicha yondashuvlar

# Harakat qilgan odam

# KAMBAGʻAL BOʻLMAYDI

Hayot tashvishlari bilan band boʻlgan Gulmiring tinchini darvozadan kirib kelgan oʻgʻlining qadam tovushlari buzdi. Maktabdan qaytgan oʻgʻli unga salom berdi-da, uyga kirib ketdi. Bir oz kayfiyati yoʻqligi bilinib turardi. Gulmira buning sababini yaxshi biladi. Qoʻli kaltalik qilib, yangi oʻquv yilida unga tuzukroq kiyim-bosh ham qilib berolmadi. Turmush oʻrtogʻining ham topishi haminqadar, roʻzgʻorni amallab turishibdi. Oʻzi esa ishsiz, oʻrta maʼlumot bilan biror ish topolmadi. “Kambagʻallik qursin”, deya ichidan oʻkinib qoʻydi.

Shu vaqt yon qoʻshnisi chaqirib qoldi. Koʻzida millitlagan yoshlarini tezda artib, unga peshvoz chiqdi.

— Assalomu alaykum. Keling, xola. — Va alaykum assalom, Gulmira. Yaxshi ham uyda ekansiz.

— Biror ish bilan band boʻlmasan, qayerda ham boʻlarding? — dedi Gulmira oʻzini xush kayfiyatda koʻrsatishga harakat qilib.

Qoʻshni xola uyida xamir tayyorlab qoʻygani, kelini ishida bir oʻz ushlanib qolgani aytib, tandinga non yopib olish uchun yordam soʻrab chiqqan ekan. Gulmira bu iltimosni rajonidil qabul qilib, qoʻshnisinikiga oʻtdi. Ancha vaqt gurgunlashib, nonni tandinga yopib olishdi. Ketar chogʻida qoʻshni xola ikkita nonni dasturxonga oʻrab, qoʻliga tutdi.

Gulmira uyiga qaytib, oʻgʻli ikkisi birga issiq non bilan choy ichdi. Mahallasida davlat tashkilotlarida ishlab, uy ishlariga ulgurmay qoladiganlar koʻp. Gohida ishdan qaytishda tuman markazidan non olib kelishadi. Gulmira shularni oʻylar ekan, unda uyida non yopib, mahallada sotish fikri tugʻildi.

Uch-toʻrt kun shu xayolda yurganidan keyin yaqinlari bilan maslahatlashib, ularning qoʻllab-quvvatlovi asosida ishini boshladi. Mahalla ahli uchun ham bu ayni muddao boʻldi. Asta-sekin non savdosi yaxshi boʻlib, buyurtmalar koʻpayib bordi. Shunga yarasha daromadni oshdi. Endi unga kambagʻalligini oʻylashga vaqt ham, sabab ham yoʻq edi. Toʻy-maʼrakalar uchun buyurtmalar ham koʻpaya boshlagach, bir oʻzi qiyinlab qoldi va mahalladagi ishsiz ikki xotin-qizni yoniga oldi, uyida yana ikkita qoʻshimcha tandir qurdi. Yopilgan nonlar ham chiroyli, ham mazali, narxi ham xaridorbop boʻlgani bois, uning dovrgʻi qoʻshni mahallalarga yoyildi. Yogʻli patirlarga buyurtma tusha boshlagach, Gulmira faoliyatini kengaytirishni oʻylab qoldi. Ammo hali buning uchun zarur jihozlar sotib olishga qurbi yetmasdi.

Yaqinda Nurota tumanida mutasaddilar ishtirokida sayyor qabul oʻtkazildi. Qoʻshnilari uni ushbu muloqotga borishga undadi. Ammo bunday tadbirlarda ishtirok etmagan, muammolarini birovga aytishga istihola qilgan Gulmira oʻzida noqulaylik his qildi. Shunday boʻlsa-da, bir ilinjda sayyor qabulga borib,

mutasaddilarga oʻz faoliyatini va rejalari haqida gapirib, faoliyatini kengaytirish uchun elektropechlar kerakligini aytdi.

Dastlab murojaati ijobiy hal etilishiga unchalik ishonmagan Gulmira Nurillayeva ertasi mahalladagi hokim yordamchisi uni soʻrab xonadoniga kelganida aholi bilan muloqotlar bejiz emasligini angladi. Mahalla mutasaddilari va hokim yordamchisi koʻmagi va tavsiyasi bilan unga bankdan imtiyozli kredit ajratildi. Ayni vaqtda faoliyatini kengaytirib, yangi ish oʻrinlari yaratdi.

— Bu yurtda harakat qilgan inson kambagʻal boʻlmaydi. Non yopib, sotishni boshlaganimda shuni tushunib yetdim. Asta-sekin faoliyatimni kengaytirdim. Imtiyozli kredit ajratilgach, elektropechlar xarid qildik, qoʻshimcha tandirlar qurdik. Mahalladagi oʻnga yaqin xotin-qizni ish bilan band qilib, ularga kasb oʻrgatayapman. Imkoniyatlar koʻp, muhimi, har bir kishi ulardan samarali foydalanib, ishonch bilan harakat qilishi lozim, — deydi Gulmira Nurillayeva.

Nurota tumanida ayni vaqtda ish bilan band boʻlgan 20 mingga yaqin fuqaroning 10 mingdan ziyodini xotin-qizlar tashkil etadi. Bundan koʻrinadiki, tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida xotin-qizlarning hisssasi salmoqli.

Tumandagi “Premer Tekstil” xususiy korxonasi ishsiz ayollar bandligini taʼminlashda namunali tadbirkorlik subyektlaridan hisoblanadi. Yaqinda korxona yangi binoda faoliyatini boshladi va ishlab chiqarish quvvatini oshirdi. Ayni vaqtda bu yerda 100 nafar xotin-qiz munosib sharoitda mehnat qilmoqda. Ishlab chiqarilayotgan trikotaj mahsulotlari Rossiya va Qozogʻistonga eksport qilinadi. Kelgusida



korxonada yana 100 nafar xotin-qizni ish bilan taʼminlash rejalashtirilgan va ayni vaqtda ishga kiruvchilar kasb-hunariga oʻqitilmoqda.

— Turkiyadan qaytganimga uch-toʻrt oy boʻldi. U yerda daromad topish maqsadida ishladik. Yurtimizga qaytganimdan keyin mutasaddilar yordamida shu yerga ishga kirdim. Mehnat sharoitlari ham, daromad ham yaxshi. Xorijda vatandan, oiladan uzoqda, ne-ne qiyinchiliklar bilan topiladigan daromadni oʻz yurtimizda ham topish imkonini borligiga amin boʻldim. Muhimi, oilamiz yonida mehnat qilmoqdamiz, — deydi korxona ishschisi Raʼno Javkayeva.

Nurota tumanida kashtachilik xotin-qizlar bandligini taʼminlashda eng muhim yoʻnalishlardan. Ayni vaqtda nurotalik barcha xotin-qizlar bu hunarni oʻzlashtirgan. Hududda xalqning hayoti va urf-odatlar bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan bu sanʼat turi qoʻligul chevarlar tomonidan asrlar osha yanada sayqallanib kelmokda. Har bir oiladagi kichik yoshli qizdan yoshi katta ayollargacha soʻzana va kashta tikish ilmiga ega.

Hozir tumanning hunarli va ishbilarmon

ayollari ushbu yoʻnalishda oʻz tadbirkorligiga asos solgan. Saodat Fayziyeva oʻttiz yillik tajribaga ega mohir hunarmandlardan biri. U Soʻkchegar mahallasidagi xotin-qizlarga kashta tikish sirlarini oʻrgatib kelmokda. Muhimi, chevarlikni mukammal oʻzlashtirganlar ustozining oilaviy korxonasida faoliyatini davom ettirib, roʻzgʻoriga daromad keltirmokda.

— Bu yoʻnalishda tadbirkor ayollarimiz koʻp. Oilaviy korxonamizda yosh shogirdlarga hunar sirlarini oʻrgatish bilan birga bandligini ham taʼminlaymiz. Qoʻl mehnati bilan tayyorlangan mahsulotlarimiz bir necha bor mahalliy va xalqaro koʻrgazmalarda eʼtirof etilgan. Yurtimizdagi turli hududlardan tashqari xorijdan ham buyurtmalar bor. Oilaviy daromadimiz shu hunarimiz ortidan keladi, — deydi hunarmand Saodat Fayziyeva.

Prezidentimizning 2022-yil 25-noyabrda Navoiy viloyatiga tashrifi davomida tumanida topshiriqqa asosan, Nurota tumanida kashtachilikni rivojlantirish, boʻz va ip mahsulotlarini mahalliyashtirib, xomashyo tayyorlash hamda mahsulot ishlab chiqarish tizimini yoʻlga qoʻyish borasida yangiliklar joriy

etildi. Xususan, tuman tarixida ilk marotaba Nurota kashtachilik maktabi tashkil etildi. Ayni vaqtda mazkur maskanda mohir kashtachilar hudud xotin-qizlariga hunar sirlarini oʻrgatib kelmokda.

Mahallalarda ishsiz opa-singillar bandligini taʼminlashda xotin-qizlar faollari xizmati ham beqiyos. Ular ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi faolligini oshirish yoʻlida samarali ishlamoqda.

— Mahallamizda 1300 xotin-qiz boʻlib, joriy yilning boshida xatlov asosida ishsizlarini aniqlab olganmiz. Ularning bandligini taʼminlash maqsadida oilaviy tadbirkorligini boshlash, kasb-hunariga oʻqishi uchun zarur koʻmak berilmokda. Shuningdek, ishsiz xotin-qizlarning bir necha nafariga subsidiya asosida tikuv mashinalari olib berildi va ular oʻzini oʻzi band qildi. Bundan tashqari, “Ayollar haftasi”ga kiritilgan 24 xotin-qizga sogʻligʻini tiklash uchun moddiy yordam berildi, — deydi Nurota tumanidagi “Oqmachit” mahalla fuqarolar yigʻini xotin-qizlar faoli Dilobar Boboqulova.

Navoiy viloyatida xotin-qizlar bandligini taʼminlash bilan birga ijtimoiy himoyasi masalasi ham eʼtibor qaratilmokda. Jumladan, oʻtgan yili boquvchisini yoʻqotgan 23 ming, shuningdek, ijtimoiy va tibbiy yordamga muhtoj 33 ming hamda qaramogʻida nogiron farzandi boʻlgan 8 ming xotin-qizga jami 63 milliard 404 million soʻm moddiy yordam koʻrsatildi. Shu bilan birga, boquvchisini yoʻqotgan 725 nafar hamda ijtimoiy yordamga muhtoj 575 nafar xotin-qizning uy-joylari taʼmirlandi.

Joriy yil 11-sentabr kuni Prezidentimiz raisligida kambagʻallikni qisqartirish ishlarini yangi bosqichga olib chiqish masalalariga bagʻʻishlab oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida xotin-qizlar bandligiga ham alohida eʼtibor qaratildi. Yigʻilishda har bir kambagʻal oilada, ayniqsa, xotin-qizlar orasidan kamida bir nafar oliy maʼlumotli boʻlishi uchun sharoit yaratilishi taʼkidlandi.

Aynan shu jihat xotin-qizlarning jamiyatda oʻz oʻrniga ega boʻlishi, doimiy daromad olib, farovon hayot kechirishida muhim omildir. Endi bu boradagi ishlar ularning hayotida yangi bosqichda namoyon boʻladi.

Gʻolib ABDUSALOMOV,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

## Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi

CHIN INSONLIK KITOBIGA  
BAXT-U HIKMAT BITGANLAR

Boshlanishi 1-betda

Ozoda ABDURAHMONOVA,  
“O‘zbekiston Respublikasi xalq  
o‘qituvchisi” faxriy unvoni sohibi:

— Yuksak davlat mukofoti bilan taqdirlanganimni eshitganimda butun vujudim titrab ketdi. Bu holatimni so‘z bilan ifodalay olmayman. Ochig‘i, kutmagan edim. “Xalq o‘qituvchisi” degan unvonning o‘zida juda katta ma‘no bor. Chunki biz xalqning farzandlarini o‘qitamiz. Xalq bizga ishonadi. Butun bilimni, bolalarning ertangi kelajagini bizdan kutadi. Bu katta mas‘uliyat. Mukofot sidqidildan ishlashimga yanada ishtiyoq berdi.

Ixtiyor MATMURODOV,  
“O‘zbekiston Respublikasida xizmat  
ko‘rsatgan xalq ta‘limi xodimi”  
faxriy unvoni sohibi:

— Shovot tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatda bolalarga matematika fanidan saboq beraman. Sohada ishlayotganimga 33 yildan oshdi. Inson o‘zi sevgan kasb bilan shug‘ullansagina, muvaffaqiyatga erishishi mumkin. O‘tamdan meros shu kasbni tanladim. Shu kasbdan rizq-baraka, halovat topdim.

O‘qituvchi faqat maosh olish uchungina bu kasbni tanlamaydi. Bolalarga mehr qo‘ygan, maktabni, sohasini sevgan insongina yaxshi o‘qituvchi bo‘la oladi. Tajribamda eng qiyin paytlarda ham maktabni tark etmagan ana shunday hamkasblarimni ko‘p uchratganman. O‘z faoliyati doirasiga tegishli bo‘lmagan ishlarga jalb qilingan, ammo o‘qituvchilikni sharaf deb bilgan, bugun esa kasbining mashaqqati ortidan e‘tibor va e‘tirof topayotgan ustozlarni har birimiz hayotimizda uchratganmiz. Shular qatorida ekanimdan baxtiyorman.

Innovatsion usullar asosida dars o‘tishga harakat qilaman. Darsda bir-biriga tekshiruvchi va ko‘makdosh bo‘lish usulini ishlab chiqdim. Bu matematikani oson tushuntiradi, darsning qiziqarli bo‘lishiga yordam beradi. Ertaga o‘quvchi qaysi sohada faoliyat yuritmasin, fanni yaxshi bilishiga zamin yaratadi. Bilimi yaxshi bolani o‘zlashtirishi bir oz sust tengdoshi bilan bog‘lab qo‘yish ham natija berdi. Shu tariqa o‘quvchilar matematikani qiziqib o‘qiy boshlashiga erishdik.

“Matematika — aql gimnastikasi”, deyishadi. Uni o‘rgatish esa ikki barobar o‘rganishdir. Darsga kirar ekanman, bolalarning ko‘plab savollarga javob, bilim va salohiyat

Ongarbay KURBANOV,  
“Shuhrat” medali sohibi:

— Nukus shahridagi Prezident maktabida fizika fanidan saboq beraman. Hayotning qay bir yo‘nalishini olmang, fizik jarayonlarga duch kelasiz. O‘quvchilarning yaxshi muhandis, texnik yoki astronom bo‘lishida ham bu fanning o‘rni alohida. Shu bois, o‘quvchilarim fizika fanini chuqur o‘rganishi uchun barcha interfaol usullardan foydalanishga harakat qilaman.

O‘quvchini zamon talablari asosida tarbiyalash umumdavlat ahamiyatiga molik masala hisoblanadi. Bu har qanday jamiyat, oila va ta‘lim maskanidagi o‘qituvchi va murabbiylar oldiga qo‘yilgan muhim talabdir.

Maktabning samarasi bitiruvchilarning hayotda muvaffaqiyatga erishishi bilan o‘lchanadi. Buning birinchi katta mezonini o‘quvchilarning oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kirish ko‘rsatkichi bo‘lsa, keyingisi muayyan sohada faoliyat yuritayotgani yoki biznes bilan mashg‘ulligidir.

Biologiya fani o‘qituvchisiman. Qishloq maktabida dars beraman. Sohada 40 yilga yaqin mehnat qildim. Faoliyatim davomida ko‘plab shogirdlar chiqardim. Ular orasida taniqli biologlar, tibbiyot xodimlari bor. Tumanda xalqaro PISA tadqiqotlari bo‘yicha trenerlik qilganman.

Yurtimizda ta‘lim tizimini isloh qilishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu soha islohotlarning bosh yo‘nalishi sanaladi. Ta‘lim tizimidagi tub burilishlar, avvalo, o‘qituvchilarning jamiyatdagi o‘rni mustahkamlash, obro‘si va mavqei ta‘minlashga xizmat qildi.

Yillar mobaynida o‘qituvchilar sinaldi. Kasb bayramimizni paxta dalalarida nishonlagan paytlarimiz yodimda. Bugun esa e‘zoz va ehtiromga munosib ko‘rilyapmiz. Chekka qishloqlarda ham zamonaviy jihozlar bilan ta‘minlangan muhtasham ta‘lim maskanlari qad rostlayapti. Ta‘limning o‘quv, moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda. O‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashiga sharoit yaratildi. Axir zamon tekzor, yangilikka intilmasangiz, hech qanday natijaga erisha olmasiz. Bu esa doim izlanishda bo‘lishingizni talab etadi. Ustozning o‘qib-o‘rganganini ko‘rgan yoshlar ham bilim olishga intiladi. Hozir bolalarning yangi texnologiyalardan, kompyuter manbalaridan foydalanishi keng ommalashgan. Biz ulardan orqada qolsak, yaxshi o‘quvchi chiqara olmaymiz. Buning uchun necha yoshda bo‘lishimizdan qat‘i nazar, harakat qilamiz.

Barcha hamkasblarimga e‘tirof, e‘zoz muborak bo‘lsin!



istayotganini his qilaman. Shu bois, o‘z ustimda ishlashni kanda qilmayman.

Prezidentimiz bayram arafasida o‘qituvchi va murabbiylar bilan muloqotida “Bizning dunyodagi eng aziz va mo‘tabar xazinamiz — bu umrimiz guli va mevasi bo‘lgan farzand va nabiralarimizdir. Hech shubhasiz, barchamiz ularning kelajakda baxtli va saodatli insonlar bo‘lib yashashini istaymiz. Lekin bunga erishish oson emas. Ayniqsa, bugungi tahlikali davrda ezig maqsadlarga yetish uchun insonga hushyorlik va ogohlik, qat‘iy iroda, yuksak bilim va keng dunyoqarash, zamonaviy kasb-hunarlar har qachongidan ham zarur. Ta‘lim va tarbiya — butun jamiyatning muqaddas ishidir”, dedi.

Ishonch — katta mas‘uliyat. Ta‘lim berish sifatini yanada oshirish, vatanga, jamiyatga yetuk kadrlarni tayyorlash va vatanparvarlik ruhida kamol topishga hissa qo‘shish mas‘uliyati zimmanda turgan ekan, bor kuchim va salohiyatimni shu elu yurt uchun munosib farzandlar tarbiyalashga sarflayman.



Shu yil o‘quvchim 54-xalqaro fizika olimpiadasida bronza medalni qo‘lga kiritdi. O‘quvchilarim orasida AQSH, Buyuk Britaniya,

“Ba‘zan o‘quvchilarim “Ustoz, siz ham charchaysizmi?” deb savol beradi. Yo‘q, men hech qachon mehnat qilishdan charchamaganman. Bolalarni, maktabni yaxshi ko‘raman. Agar ikkinchi marta yashash imkoni berilsa, qaytadan o‘qituvchilik kasbini tanlagan bo‘lardim. Og‘ir paytlarda ham sohani tashlab ketish xayolimga kelmagan. Shogirdlarim ichida fan doktorlari, nufuzli ta‘lim tashkilotlarida rahbar lavozimlarida ishlayotganlar ko‘p. Ular mening faxrim, g‘ururim.

Ilyos RAUPOV,  
“O‘zbekiston Respublikasida xizmat  
ko‘rsatgan xalq ta‘limi xodimi”  
faxriy unvoni sohibi:

— Ayrim tuyg‘ularni, kechinmalarni so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi. Ular faqat his qilinadi. Menda ham bayram arafasida shunday bo‘ldi. Xushxabarni eshitib, qattiq hayajonlandim.

2016-yili “Shuhrat” medaliga munosib ko‘rilgan edim. O‘shanda mukofot mas‘uliyati nihoyatda katta ekanini his qilganman. E‘tirof menga qanot bag‘ishlagandi. 6-9-sinflar maktab darsligidagi mavzularning hammasi asosida multimedia darsliklari tayyorlanganman. Keyinchalik uni yana boyitib bordim. 2017-yilda bu darsliklar respublika bo‘yicha ommalashdi. Darsliklar taqrizida qatnashdim. Hammuallif bo‘ldim. Ikkinchi va uchinchi Ustozlar milliy forumida ishtirok etib, forum materiallarini viloyatdagi har bir hamkasbimga yetkazishga harakat qildim. O‘quvchilarim respublika olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Yurtimizda



Koreya Respublikasining nufuzli oliygohlarida tahsil olayotganlar ko‘p. Ularga ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha individual maslahat va oliygohlarga hujjat topshirish, ro‘yxatdan o‘tish bo‘yicha kerakli tavsiyalar berish, dunyoning eng rivojlangan mamlakatlaridagi nufuzli oliy o‘quv yurtlari haqida ma‘lumotlar, ehtiyoj yuqori kasblar bilan tanishtirish va ularga yo‘naltirishga harakat qildim, qilyapman.

Mamlakatimizda ta‘lim yo‘nalishida juda katta islohotlar, o‘zgarishlar, yangilanishlar bo‘lyapti. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilgani alohida hodisa. Maqsad — ilg‘or xalqaro tajriba va texnologiyalardan foydalangan holda vatanparvar, bilimli yoshlarni tarbiyalash. Shunday ta‘lim muassasalari bugun yurtimizning har bir viloyatida faoliyat boshlagan. Bu maktablarga tayyorgarlikning o‘zi o‘quvchilarning o‘z ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu yerda qo‘llanilayotgan ilg‘or metodika bugun samara beryapti. Bolalarimiz xalqaro nufuzli olimpiadalarda sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelmogda.

Singapurning Marshall Cavendish Education tashkiloti hamkorligida o‘tkazilgan matematika va tabiiy fanlar o‘qituvchilari uchun seminar-treningda ishtirok etib, u yerda o‘rgangan bilim va ko‘nikmalarimni viloyatdagi hamkasblarimga yetkazishga harakat qildim. Jumladan, ta‘lim tajribasi va jarayonlarni rejalashtirish, ustozlar uchun ish rejasini tayyorlash va taqdim etish, PISA tadqiqotlari, uning ahamiyati kabi mavzular mazmunini tushuntirdim. Innovatsion dars o‘tish usullarini amaliyotga tatbiq eta oldik.

Maktabimiz o‘quvchilarini oliy ta‘lim bilan qamrab olish o‘rgan yili 60 foizni tashkil etdi. Bu esa ta‘limdagi eng ilg‘or tajribalarni amaliyotga qo‘llashimiz natijasidir. Avval nazariy bilimga chuqur e‘tibor berilgan bo‘lsa, endi ta‘limning kompetensiyaviyligi, hayotda qo‘llanilishiga ko‘proq ahamiyat qaratyapmiz.

Chuqur tabiiy masalalar, formulalar bilan ishlash barobarida o‘tilgan mavzuni hayotda qo‘llash, kerakli joyda undan foydalanish va bu borada o‘quvchi tomonidan bildirilgan g‘oyalarni e‘tiborsiz qoldirmaslikka harakat qilyapmiz. Ehtimol, bu g‘oyalar davlat ahamiyatidagi yangiliklar bo‘lishi mumkin. Bularning barchasi esa ta‘limni hayotda qo‘llashga intiluvchi harakatlardir. Bu bolaning intellektual ongini rivojlantiradi.

Ba‘zan o‘quvchilarim “Ustoz, siz ham charchaysizmi?” deb savol beradi. Yo‘q, men hech qachon mehnat qilishdan charchamaganman. Bolalarni, maktabni yaxshi ko‘raman. Agar ikkinchi marta yashash imkoni berilsa, qaytadan o‘qituvchilik kasbini tanlagan bo‘lardim. Og‘ir paytlarda ham sohani tashlab ketish xayolimga kelmagan. Shogirdlarim ichida fan doktorlari, nufuzli ta‘lim tashkilotlarida rahbar lavozimlarida ishlayotganlar ko‘p. Ular mening faxrim, g‘ururim.

Kamtarona mehnatim yuksak mukofotga munosib ko‘rilgani menga cheksiz sharaf hamda katta mas‘uliyat berdi. Bu nafaqat menga, balki ajoyib jamoam, hamkasblarimga berilgan mukofot hamdir.

Joriy yil 30-sentabr kuni davlatimiz rahbarining ta‘lim-tarbiya sohasi vakillari bilan muloqoti chog‘ida alohida o‘rnak ko‘rsatgan ta‘lim sohasi xodimlarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi. Prezidentimiz mamlakatimizning barcha ta‘lim-tarbiya xodimlarini O‘qituvchi va murabbiylar kuni bilan samimiy muborakbod etib, davlat mukofotlarini tantanali ravishda topshirdi. Muloqotda bugungi kunda barcha soha va tarmoqlardagi islohotlar inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ta‘minlashga qaratilayotgani ta‘kidlandi. Davlatimiz rahbarining “Vatan va xalq manfaati uchun mardona kurashadigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, bilimli va bunyodkor avlodni kim tarbiyalaydi? Albatta, sizlar — zahmatkash va jonkuyar ustozlar. Buning uchun, avvalo, o‘qituvchining o‘zi huquqiy, ijtimoiy va moliyaviy tomondan himoya qilingan va yetarli ta‘minlangan bo‘lishi kerak. Shundagina u o‘zining chinakam insoniy va kasbiy fazilatlarini amalda namoyon qila oladi”, degan fikrlari har bir o‘qituvchi va murabbiy qalbida aks sado berdi. Biz ustoz va murabbiylar mulohazalari bilan qiziqdik.

Qizlarsara NAMOZOVA,  
“Do‘stlik” ordeni sohibi:

— 46 yildan buyon Jarqo‘rg‘on tumanidagi 7-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lib ishlab kelyapman. Uyindak aziz bo‘lib qolgan bu mo‘tabar dargohda go‘yo har yili o‘z bolalarimni takror va takror tarbiyalayman, ularga baholi qudrat harf tanitishga, olamni o‘z dunyosining hadsiz kengliklaridan turib tasavvur qilishiga ko‘maklashaman.

Shu yo‘lda iroda namoyish qilayotgan jonkuyar o‘qituvchilar qatorida hali-hamon bor ekanimdan behad xursandman. Yoshim o‘tdi, charchadim demay, davrga moslashishga, uning talablariga munosib javob qaytarish uchun tinimsiz harakat qilganim uchundir, bugun “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandim, e‘tirof etildim. Unchalik ham katta bo‘lmagan mahallaning maktabida vijdon amriga quloq tutib

ishlab kelayotgan bir ayolning ayni damdagi quvonchi mahalla quvonchi, millat quvonchi ekaniga aslo shubham yo‘q.

Bolalar bilan ishlash — hayotimning mazmuni. Qo‘shimcha mashg‘ulotlar, to‘garaklar orqali katta bilimga poydevor qo‘yaman. Birinchi navbatda, bolalarda og‘zaki nutqni rivojlantirishga harakat qilaman. Keyin esa yozma nutqqa urg‘u beraman.

Boshlang‘ich ta‘limda darsliklarimizning hammasi Finlyandiya tajribasi asosida yangilandi. Bunda o‘qituvchi bosh rolda emas, unda o‘quvchi o‘z fikrini mustaqil bayon eta oladi, o‘zini mantiqiy, kreativ, tanqidiy fikrlaydigan shaxsga aylantiradi. Bugungi kunda axborot texnologiyalar jadali rivojlanib bormogda. O‘tgan o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinflarda informatika fani o‘quv dasturiga kiritildi. Shu dastur asosida ilk saboqlar berila boshlandi. Boshlang‘ich sinflarda matematika, o‘qish savodxonligi fanida juda katta o‘zgarishlar bor. Avval faqat matn ustida ishlangan bo‘lsa, hozir matn yuzasidan o‘quvchilar o‘z fikrini mustaqil ayta oladi va shu fikrlar asosida bir-birining javobini baholab boradi. Mashg‘ulotlar o‘yin tarzida, zamonaviy texnologiyalar asosida o‘tiladi. Chunki yosh bolalar bilan ana shunday o‘yinlar tarzida o‘tilgan mashg‘ulotlar qiziqarli bo‘ladi. Ularning yodida qoladi va ertangi mavzularni o‘zlashtirishda o‘tgan mavzularimiz yordam beradi.

O‘qituvchilik menga ko‘p narsa berdi. Hayotimni maktabiz, bolalarsiz tasavvur qila olmayman. Kasbim orqali oilamni tebratdim, ota-onalar o‘rtasida hurmatga sazovor bo‘ldim. Mehnatim tufayli xalq ardog‘idaman. Jamoam o‘rtasida hurmat qozondim. Shogirdlar yetishtirdim. Ularning ko‘pchiligi o‘qituvchilik kasbini tanlagan, muvaffaqiyatlari ko‘z oldimga kelsa, o‘zimni baxtli his qilaman.

## Orzudagi

## YUKSAKLIK SHUKUHI

## Uni ma'rifatli, sadoqatli va fidoyi shaxslar yaratadi

Zarrabin

Vatanimiz mustaqilligi osongina qo'lga kiritilmagan. Hurriyat deb jadidlar jonini tikkan, "bosmachi" degan tamg'a olgan ajdodlarimiz shu yo'lda qurbon bo'ldi. Undan oldingi tarix haqida ham shu kabi manzaralar bisyor. Nihoyat tarixiy imkoniyat sharofati bilan mamlakatimiz osmonida ro'shnoqlik quyoshi charaqlaganiga, mana, 33 yil to'ldi!

Bugun hayot oldimizga qo'yayotgan savollarga ana shu muborak 33 yillik cho'qqidan turib ochiq-oydin fikrlamog'imiz, mulohaza yuritmog'imiz juda-juda tabiiy. "Zarrabin" ruknimizdan murod ham shu, ya'ni ayni paytda mamlakatimizda davom etayotgan shiddatli islohotlar samaradorligiga hissa qo'shish. Ruknimizning bu galgi mehmoni — taniqli adib, filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Xurshid Do'stmuhammad.

Tahririyat

— Demak, so'zni vatanimiz mustaqilligi mavzusidan boshlasak...

— Bajonidil. Darhaqiqat, mustaqillik va mustaqillik sharofati bilan xalqimiz ko'zlagan va ko'zlayotgan taraqqiyot cho'qqisi mavzusi hamisha dilimiz, shuurimiz to'rida arzanda va totli orzu-istak bo'lib qolaveradi. Inchunin, har bir ongli vatandoshimizning mustaqillik qo'lga kiritilishi, ortda qolgan yillar mobaynida bosib o'tilgan va o'tilayotgan yo'limiz borasida o'z qarashlari, fikr-mulohazasi yig'ilib borishi ham tabiiy.

Menga ruknning nomlanishi yoqdi. Chunki "zarrabin" degan so'z, nazarimda, suhbatdoshni umumiylikdan qochishga, ko'ngildagi bor mulohazalarni ochiq-oydin, yanayam sinchkovlik bilan, chuqurroq, miqyosliroq izhor etishga chorlayotgandek tuyulmoqda. Bu borada zarrabinning ham, "Zarrabin" ruknining ham imkoniyati katta deb o'ylayman.

O'tgan asrning 70-80-yillari arafasida mustaqillik orzusi ziyoli qatlam vakillari, ayniqsa, navqiron ijod ahlining og'zidan tushmagan. Muhimi, ruh, shiddat baland edi. To'rt odam yig'ilgan joyda uncha-muncha aql bovar qilmas masalalar "yechimi topilib, hayotga tatbiq etib" yuborilardi. Bu xil gap-so'zlariga istehzo bilan qarovchilar ham bo'lgan. Istiqloq istagidilarni siyosiy so'qirga, "jo'jaxo'roz"ga chiqaruvchilar, "Nima deypaslanlar, SSRday qudratli davlatga bas keladigan kuch yo'q yeri ko'kda!" deb og'ziga uradiganlar oz emasdi. Biroq...

Fikrimcha, 90-yillar boshida sobiq sho'rolar saltanati izmidagi respublikalarda yuz bergan tarixiy voqealardan chiqarilishi kerak bo'lgan muhim tarixiy xulosa: har qanday istibod qanchalar kuchli-qudratli bo'lmasin, vujudida tanazzul-intiho urug'lari ham yo sezilib, yo sezilmay yetilayotgan bo'ladi. Ertami-kechmi, o'sha urug' unib, bo'y ko'rsatadi. Shundan keyin uni hech qanday kuch to'xtata olmaydi. Muqarrar shunday! Shu bois, xalq va vatan manfaatini yo'lida fidoyi inson hayot ekan, botinidagi "Mumkin emas!", "Illoisiz!" degan bo'shang tuyg'ularni "Mumkin!", "Illoj bo'!" degan kurashchan aqidaga o'zgartirish yo'llarini izlamog'i kerak, shart! Hurriyat bizga mazkur ishonchni berdi, binobarin, hurriyatning qadriga yetish o'sha o'lmas ishonchning qadriga yetish bilan chambarchas bog'liq.

Davlat mustaqilligi o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z taraqqiyot yo'lini o'zi kashf etish, qisqasi, o'z yog'iga o'z qovrilib, farovon ro'shnoqlikka erishish, jamiyatni hali amalda ko'rilmagan darajalardagi yuksakliklar sari olib chiqish demakdir. Mustaqillikka erishdingmi, marhamat, qanday millat va xalq sifatida mavjudsan, nimalarga qodirsan, nimalarga qurbing yetadi — qanday istiqbol cho'qqilarini ko'zlagan, salohiyatingni namoyon qil, o'zligingni ko'rsat, degani.

O'tgan asrning 91-yili tarix va taqdir O'zbekistondan davlatga, o'zbek millati ixtiyoriga mana shunday imkoniyatni in'om etdi. Xo'sh, nima bo'ldi? O'tgan 33 yil kichkina davr emas. Jug'rofiy imkoniyatlari har jihatdan to'kis, nufusi zalvorli davlat nimalarga erishdi-yu nimalarga erisholmadi?

Bu savollarga osongina, jo'ngina yoki mxtasargina javob berish qiyin. Lekin savolga savol bilan javob berilsa-chi? Ya'ni mustaqillikning 33 yilida xalqimiz ko'zlagan,

orzu-umid qilgan taraqqiyot cho'qqilari zabt etildimi? Yoxud taraqqiyot cho'qqilarini ishg'ol etish sari zalvorli qadamlar tashlandimi?..

Yana o'ylab qolasan kishi: "ha" desang, "yo'q" deyiganlar, "yo'q" desang, "ha" deyiganlarga ro'para kelasan. Ikki tomonni murosaga keltirguncha esa joning halak!

— Fikringizga aniqlik kiritasangiz.

— Aniqlik ko'rinib turibdi. Lo'ndasini aytganda, siyosiy mustaqillik hadya etgan imkoniyatlardan yetarli foydalanilmadi. Buning sabablari juda-juda ko'p, lekin bosh va asosiy sabab — layoqatsizlik va uquvsizlik deb o'ylayman.

Bitta misol keltiraylik.

Keng omma mustaqillikni orzu qilib yurgan paytlarda "O'zbekiston o'z holiga qo'yilsa, odamlarimizning kosasi tildan bo'ladi, paxtamizning o'zidan keladigan daromad xalqimizni boqishga yetib ortadi", degan mahobatli bashoratlar ko'p aytili. Birdan



ilojsiz ekanini ham tushunamiz. Bu istiqloq tongidagi tabiiy holatligini ham nazardan qochirmaymiz. Ammo-lekin hash-pash deguncha chorak asr ortda qoldi, taraqqiyotning kuch-salohiyat topa olmaganimiz, ya'ni layoqatsizlik, uquvsizlik, yumshoq qilib aytganda, tajribasizlik pand bergani tan olinsa, undan kerakli xulosalar chiqarilsa, foydaliroq bo'lmasmikan deb o'ylayman. Chunki hayot hech qachon silliqqina, osongina kechmaydi, xususan, hozirgi tahlikali va munosabatlar qaltis tus olayotgan bir paytda davlat rahbarining zimmasidagi muammo ko'lami va zalvorini har kim ham xolis tasavvur qila olmaydi. Shunga qaramay, fidoyi rahbar o'z xalqi hayotini, jamiyati ravnaqini yangidan yangi taraqqiyot yuksakligi tomon boshlab borish niyati, orzusini biror daqiqa bo'lsin unutmaydi.

Shu ma'noda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning g'oyasi va tashabbusi bilan olis o'tmishdagi ikki Uyg'onish davri — Renessansni keng ommalashtirishga kirishilgani favqulodda topilma-kashfiyot bo'ldi deb o'ylayman. Qisqa fursatda biror 10 va ikkinchisi 5 asr muqaddam erishilgan yuksaklik chinakam ma'noda bugungi

— Bu xususda bahsga o'rin yo'q. Qiyinchilikning ko'p-ozligi alohida muammo, lekin bu o'rinda gap siz nazarda tutgan shart-sharoitni bartaraf etishga qodir potensial kuch-salohiyat topa olmaganimiz, ya'ni layoqatsizlik, uquvsizlik, yumshoq qilib aytganda, tajribasizlik pand bergani tan olinsa, undan kerakli xulosalar chiqarilsa, foydaliroq bo'lmasmikan deb o'ylayman. Chunki hayot hech qachon silliqqina, osongina kechmaydi, xususan, hozirgi tahlikali va munosabatlar qaltis tus olayotgan bir paytda davlat rahbarining zimmasidagi muammo ko'lami va zalvorini har kim ham xolis tasavvur qila olmaydi. Shunga qaramay, fidoyi rahbar o'z xalqi hayotini, jamiyati ravnaqini yangidan yangi taraqqiyot yuksakligi tomon boshlab borish niyati, orzusini biror daqiqa bo'lsin unutmaydi.

Shu ma'noda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning g'oyasi va tashabbusi bilan olis o'tmishdagi ikki Uyg'onish davri — Renessansni keng ommalashtirishga kirishilgani favqulodda topilma-kashfiyot bo'ldi deb o'ylayman. Qisqa fursatda biror 10 va ikkinchisi 5 asr muqaddam erishilgan yuksaklik chinakam ma'noda bugungi

immuniteti bilan yashaydi. Ushbu immunitet talabi va ehtiyojiga ko'ra millat tiyatnadi o'zini ulug'lovchi, ko'ngillarni ko'taruvchi, ruhiy madad vazifasini o'tovchi, kerak bo'lsa, o'zini ko'z-ko'z qilish istagidan kelib chiqqan fazilatlar o'ziga xos doimiy timsolu alomatlariga aylana boradi. Hozirgi til bilan aytganda, shu tariqa imij yaratiladi. Misol uchun, o'zbek — mehmondo'st, dildash va bag'rikeng millat. Yapon unday, ingliz bunday va hokazo. Ya'ni millat vakillari o'z ma'naviy yuksakligiga chiqib olib, o'zini, o'zligini ko'z-ko'z qilishni, shu orqali dunyoga jar solishni ko'zlaydi. Faxrlanadi, g'ururlanadi. Buning yomon joyi yo'q. Bu, bir tomondan, milliy g'urur manbai sifatida, ikkinchi tomondan, jahon xalqlari nazarini "ishg'ol" etishda juda qo'l keladi.

Shu o'rinda mulohaza tug'iladi. Gap shundaki, har qanday milliy tafakkur muayyan darajada mublag'aga moyillik tuyg'usidan xoli qololmaydi. Buning natijasida picha bo'rttirish, picha oshirib ko'rsatish unsurlari vaqt o'tgani sayin oddiy ko'nikmaga trafareta aylanib ketadi. Aqidaga aylangan sari til-quloq odatlanadi-da, undagi daqqilik,

**E'tibor beraylik: jadidlik cho'qqisi davridagi ulug'vor orzular va bugungi muammolarga yechim topish o'rtasidagi yaqinlik, uyg'unlik tarixiy davrning uzluksizligidan, kechagi va undan avvalgi o'tmishimizning bugunimiz hamda ertangi istiqbolimiz bilan musharakligidan dalolat. Bu omil orzudagi yuksakliklarni hayotimizdagi yuksakliklarga aylantirishini istamoqdamiz.**



xalqimiz uchun o'ziga xos qutb yulduziga, nurlil mayoqqa aylanib bormoqda. Jamiyatni birlashtirishga xizmat qiladigan, mamlakatimiz rivojlanishi, taraqqiy etishi uchun hammami birdek harkatga keltiradigan kuch g'oya aslida bu! Uchinchi Renessans mana shu mayoq vazifasini o'tamog'i lozim. O'zbek millati jo'n millat emasligiga, o'tmishida osmono'par tog' cho'qqilari ko'kka qadar bo'y cho'zib turganidan haqli ravishda faxrlana olishimizga e'tibor qaratilmoqda. Yanada muhimi, xalqimizning ayni zamonadagi mavjud salohiyati Uchinchi Uyg'onish davrini yaqinlashtirishga qodirligiga urg'u berilmoqda. Bu nihoyatda ulug' maqsad, ulug' niyat, ulug' orzu!

Ayni chog'da har qanday millat, xalq tirik organizm singari o'zini o'zi asrash

beo'xshovlik sezilmay qoladi. Misol uchun, qachon, qayerda o'zbek mentalitetidagi milliy o'zimizga xos fazilatlaridan so'z o'chilsa, birinchi navbatda, mehmondo'st xalq ekanimiz faxrlanib tilga olinadi.

Mehmondo'stlik noyob va nodir fazilat, unga til tekkiyishdan yiroqman, lekin XXI asrning ikkinchi choragida yashayotgan dunyo xalqlari kahlkashonida mehmondo'stlik bilan nom qozonishi, meh-e'zozga sazovor bo'lish (doshqozonlarda tonnalab osh damlab, bepul tarqatishlar, shu jumladan) ba'zan erish tuyuladi. Mayli, mehmondo'st millat bo'lib qolaylik. Shu bilan bir vaqtda dunyoga o'zbek millati ilimga tashna, halol, ishchan, uddaburon, qo'rqmas, jasur, ahil, jipslashgan, yuksak madaniyati millat sifatida tanilasa, deya orzularga berilgisi keladi odam.

Yana bir mulohaza. Davlat madhiyasining ulug'vor jarangi har qanday qalbg'a jo'shqinlik baxsh etadi. Baralla jo'r bo'lib kuylash maroq bag'ishlaydi har bir vatandoshimizga. Biroq qo'lni ko'ksimizga qo'yib qulluq qilish haqida o'ylab ko'rsak-chi? Milliy bag'rikenglik, murosai madoraga moyillik timsoli bo'lib qolishini istayapmizmi shu manzara orqali?

Qonunga bo'ysunamiz, albatta, lekin o'zbek shuncha vaqt qulluq qilgani yetar. Qulluq qilishni qonunlashtirib qo'yamaymizmi? Uchinchi Renessans ishqida odim tashlayotgan millat dunyoga boshini, qaddi-qomatini g'oz tutgan holda mag'rur bo'lib yuzlangani ma'qulroq emasmi? Ulug' shoirimizning quyidagi o'lmas misrasini nechun unutishimiz kerak:

Qayga bormay, boshda do'ppim,  
G'oz yurarmen, faxr etib...

Mutaxassislar, ziyolilar, keng jamoatchilik ushbu masala yuzasidan kengashaylik.

— **Jadid munavvarlarimiz davrining kichik Renessansga qiyoslanishiga qanday qaraysiz?**

— Qarang! Jadid otalarimiz davridagi xalqimiz ilm-ma'rifatga, zamonaviy yangilanishlarga tashna millat sifatida e'tirof etildi. Naqadar ajoyib! Shuning o'zi Uyg'onish, ma'naviy-intellektual Renessans!

XX asr avvalida Turkiston o'lkasida vujudga kelgan jadidlik harakati jahon xalqlari tarixida qiyosi yo'q unikal voqea! O'tmishdagi Birinchi va Ikkinchi Renessansga tenglashtirish shart emas, albatta, ammo mintaqamizda tug'ilgan, faoliyat yuritgan jadidlik harakati — XX asr Renessansi! Milliy cho'qqi!

Diniy kitoblarimizda qalb va shuurdagi niyatga alohida urg'u beriladi. Ulug' niyat hatto amaldan-da yuqori qo'yiladi. Shu tushunchadan kelib chiqsak, jadidlik harakatining ahamiyati butun betakrorligi bilan ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Ushbu harakat tarixiga doir yangidan yangi ma'lumotlar bilan tanishanimiz sayin xayolga erib barmay iloj yo'q. Prezidentimiz topib aytganidek, jadidlik harakati o'n g'ulidan bir guli ochilmay bo'g'ib tashlamaganida ayni kunlarimizdagi juda ko'plab muammolar o'z-o'zidan yechimini topib ketgan, xalqimiz yanada yuqori maqomdagi hayotiy masalalar bilan mashg'ul bo'lar edi.

E'tibor beraylik: jadidlik cho'qqisi davridagi ulug'vor orzular va bugungi muammolarga yechim topish o'rtasidagi yaqinlik, uyg'unlik tarixiy davrning uzluksizligidan, kechagi va undan avvalgi o'tmishimizning bugunimiz hamda ertangi istiqbolimiz bilan musharakligidan dalolat. Bu omil orzudagi yuksakliklarni hayotimizdagi yuksakliklarga aylantirishini istamoqdamiz.

— **Qanday odamlarni zamonaviy jadidlar deya olasiz?**

— Zamonamiz jadidlari oz emas. Bunday deganda, ilimga tashna, niyati toza, fidoyi, kunni, vaziyatni va ijtimoiy-siyosiy muhitning bor murakkabligini tahiliy tafakkur chig'irig'idan o'tkaza oladigan munavvar insonlarimiz nazarda tutilmoqda, albatta. Zamon, siyosat, turmush tutumlari tinimsiz o'zgarib turgan maskan-u manzilda har qanday yomonlikni yaxshilikka, og'irlikni yengillikka aylantirmoq yo'lida halovatlardan voz kechgan kishi — jadid.

O'zgarishlar ummonida o'zlikni asrab qolish oson kechmayapti, manfaat tushunchasi sarhad bilmay qoldi. Yashirmaylik, "Bu yerda bo'lmasa, boshqa joydan topaman" degan tushunchaga chalg'iyotganlar ham oz emas.

Chikagoda (AQSH) o'zbek madaniy markaziga taklif qilishdi. Bordim, yuzdan ziyod vatandosh, millatdoshlar jam bo'ldi. Dildan gurunglashdik. Yakunda "Ertaga Toshkentga qaytayapman", deya mezbordan izn so'radim. Shunda, tasavvur qilasizmi, yig'ilganlarning qariyb bari menga havas bilan ko'zlari charaqlab, "Bizni ham olib keting!" deb baravariga qo'l ko'tardi.

Ta'rifiqa til ojiz bir manzara, kayfiyat. Nazarimda, shu manzara, shu lahz'a har qanday insonni hayajonlantirib yuboradigan milliy yuksaklik cho'qqisi bo'lib tuyuldi menga!..

**"Yangi O'zbekiston" muxbiri Boboravshan G'OZIDDINOV suhbatlashdi.**

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetlari tahririyati" DM

MUASSIS:  
**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:  
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-qanad bilan ro'yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 3442.  
41218 nusxada bosildi.  
Gazetaning usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.  
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.  
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova  
Musahhih: Nasiba Abdullayeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilmiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy